

XORAZM VOHASIDA IBTIDOIY MADANIYAT SHAKLLANISHIDA TABIY JARAYONLAR VA PALEOIQTIM SHAROITLARI

Ismailov Ulug'bek Saparboy o'g'li

Abu Rayhon Beruniy nomidagi

Urganch davlat universiteti

mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Mazkur tadqiqotda Xorazm voasida ibtidoiy madaniyatning shakllanishiga chuqur ta'siq rilgan tabiiy-iqlim sharoitlari tahlil qilingan. Shuningdek, tabiiy o'zgarishlarning manbalari hamda sabablari tadqiq qilinib, xulosalar berilgan.

Kalit so'zlar: Xorazm vohasi, ibtidoiy madaniyat, paleoiqlim, muzlik davrlari, golotsen, Amudaryo, Sariqamish, Uzboy, Orol dengizi, geografik omillar, migratsiya, iqlim fazalari.

Аннотация. В данном исследовании проанализированы природно-климатические условия, оказавшие глубокое влияние на формирование первобытной культуры в Хорезмском оазисе. Также изучены источники и причины природных изменений и сделаны соответствующие выводы.

Ключевые слова: Хорезмский оазис, первобытная культура, палеоклимат, ледниковые периоды, голоцен, Амударья, Сарыкамыш, Узбой, Аральское море, географические факторы, миграция, климатические фазы.

Abstract. This study analyzes the natural and climatic conditions that profoundly influenced the formation of primitive culture in the Khorezm oasis. The sources and causes of natural changes are also investigated, and conclusions are drawn.

Keywords: Khorezm oasis, primitive culture, paleoclimate, glacial periods, Holocene, Amu Darya, Sarykamysh, Uzboy, Aral Sea, geographical factors, migration, climate phases.

Xorazm vohasi O'rta Osiyoning qadimiy madaniyat markazlaridan biri

bo'lib, uning shakllanishi va rivojlanishida tabiiy-geografik omillar, xususan, iqlim o'zgarishlari va gidrografik tizimlarning o'zgarishi muhim rol o'ynagan. Ibtidoiy madaniyatning joylashuvi, asosan, tabiiy resurslar, xususan, suv manbalarining mavjudligi va ularning dinamikasiga bog'liq bo'lgan. Suv manbalarining o'zgarishi esa yer yuzasi shaklining o'zgarishi va iqlimning davriy tebranishlari kabi omillar ta'sirida sodir bo'lgan.

Xorazm vohasida ibtidoiy madaniyatning joylashuvi birinchi navbatda tabiiy resurslar salmog'iga bog'liq holda kechadi. Ushbu jarayonning harakatlantiruvchi kuchi esa albatta, suv manbalari hisoblanadi. O'z navbatida suv manbalari dinamikasi hamda sathlarining tebranishi bir qancha omillarga bog'lanadi. Xususan, yer yuzasi shaklining o'zgarib borishi va tabiatda sodir bo'lgan iqlim tebranishlari buning bosh sababchisidir. Vohada antropogen landshafning shakllanishida eng katta rol o'ynagan jarayonlar muzlik davri natijasida sodir bo'ladi.

Alp relyefi shakllanishining to'rt asosiy muzlik davri bo'lib, ular gyunts, mindel, riss va vyurm nomlari bilan ajralib turadi. Har bir muzlash davri orasida muzlik oralig'i davrlari mavjud bo'lib, ular gyunts-mindel, mindel-riss va riss-vyurm deb yuritiladi. Muzlik davrlarining oxirgi bosqichidan keyingi davr, odatda, golotsen deb ataladi[9].

Golotsen davri hozirgi kundagi iqlim sharoiti hukm surgan davr bo'lib, tarixan bir qancha iqlim o'zgarishlari bilan kechadi. Tadqiqotchilar tomonidan taqdim qilingan shkalaga ko'ra golotsen davri beshta iqlim fazasini o'z ichiga oladi: preboreal iqlim fazasi – hali sovuq, nam (10 000–9000 yil avval); boreal iqlim fazasi – nisbatan iliq va quruq (9000–8000 yil avval); atlantic iqlim fazasi – iliq va nam, golosendavrning iqlim optimumi (8000–5000 yil avval); subboreal iqlim fazasi – nisbatan sovuq va qurg'oqchil (5000–2500 yil avval); subatlantik iqlim fazasi – nisbatan iliq va nam (2500 yil avval – hozirgi davr)[2]. Yevrosiyo hududi shimolida bronza davridan arxaik davrgacha suborreall iqlim hukmronlik qiladi[10]. G'arbiy hududlarda esa suborreall natijasida kserotermik sharoit kechgan.

Golotsen davri iqlim sharoitlari Xorazm vohasiga tutash yirik suv havzalari shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Natijada paleofauna dunyosi migratsiyalari natijasida ibtidoiy ovchilar ham vohaga kirib keladilar. Ammo bu jarayon asosan mintaqaviy miqyosda kechgan. Biroq Bronza davridagi iqlim o'zgarishlari voha ibtidoiy madaniyatining shaklini o'zgarishiga sababchi bo'lib, yangi migratsiya to'liqlinini sodir qiladi.

Subotlantik iqlim fazasi kirib kelishi bilan Orol dengizi ham o'z sathini yuqori darajasiga erishgan[5]. G.S.Bur, Y.V.Kuzmin, S.K.Krivogonov, S.A.Gusskov, R.J.Kruz[1] lar tadqiqotiga ko'ra Orol dengizi radiokarbon usulidan foydalangan holda yoshi aniqlanib, taxminan 17,6 ming yil oldin, Pomir va Tyan-Shan tog' muzliklari faol eriy boshlaganda paydo bo'lgan bo'lib, 17,6 dan 15,3 ming yil oldingi davrda ko'l havzasiga daryo suvining doimiy ravishda ko'p oqimi bo'lgan. Bu davrni vyurm muzlashining so'nggi bosqichida sodir bo'lganini ko'rish mumkin[7]. Bu jarayon esa Kaspiy tarixidagi xvalin transgressiyasi bilan parallel kechgan[6]. Bunday tebranishning birlamchi omili Orol dengiziga quyiluvchi daryolar sathi hisoblanadi. Ko'plab tadqiqotlarda Markaziy Osiyo daryolari dinamikasi yer yuzasi struktirasidagi o'zgarishlar bilan bog'lanadi. Yer qobig'ining harakatlari bilan bir qatorda, daryo tizimlarining shakllanishida global okean sathidagi o'zgarishlar ham muhim omil hisoblanadi. So'nggi muzlik davrida, Yer yuzasidagi suv aylanishidan katta hajmdagi muz qoplamlarining uzoq muddat ajralib qolishi tufayli, okean sathi hozirgi darajasiga nisbatan taxminan 100 metr pastroq bo'lgan. Bu holat daryolarning oqim tezligining kuchayishiga va ularning o'zanlarining sezilarli darajada chuqurlashuviga olib kelgan[4]. Amudaryoning g'arbiy yo'nalishda Sariqamish hududiga burilishi kech pleystotsen davrida yuz bergan bo'lib, bu hodisa daryo tizimining rivojlanishida yuqori to'rtlamchi davrning ikkinchi bosqichini belgilab bergan[8].

Mazkur davrda Amudaryo gidrografik tizimida keskin o'zgarishlar ro'y berib, daryo butunlay g'arbiy tomonga oqimini yo'naltirgan. Amudaryo suvlarining asosiy qismi Sariqamish botig'i va unga tutash pasttekisliklarni qoplab, ularni suv bilan ta'minlagan. Daryoning ushbu tarmog'i muzlik davridan keyingi

davrda Sariqamishga quyilishning eng faol yo'li bo'lgan. Amudaryo suvlarining to'planishi natijasida Sariqamish ko'lining sathi dengiz sathidan 58 metr balandlikkacha ko'tarilgan. Ko'p miqdordagi suv massalari Qoraqum cho'lidagi Unguzorti tepaliklari orasidagi pasttekisliklar orqali oqib, Ustyurt platosining janubiy qismi bo'ylab janubi-g'arbiy yo'nalishda Kaspiy dengizining sharqiy qo'ltig'iga yetib borgan. Bu jarayon davomida uzunligi 550 kilometrga yetgan Uzboy o'zani shakllana boshlagan[8].

Shu jihatdan mezolit davriga kelganda (10-9 mingyilliklar) iqlim sharoitida havo harorati oshishi munosabati bilan pleystosen muzligi shimoliy hudud sari chekinishi natijasida Ustyurt, Sulton Uvays tog'i, Orolbo'yi sharqiy hududlari sernam va serunum tekislikning avvalgi holati vujudga kelgan[3].

Xorazm vohasida ibtidoiy madaniyatning shakllanishi va rivojlanishi qator tabiiy-geografik omillarning murakkab o'zaro ta'siri natijasida yuzaga kelgan. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, voha madaniyatlarining joylashuvi va dinamikasi birinchi navbatda suv resurslarining mavjudligi va taqsimlanishiga bog'liq bo'lgan. Quyidagi asosiy xulosalari chigarish mumkin:

Birinchidan. Iqlim o'zgarishlarining hal qiluvchi roli: Golotsen davrining turli iqlim fazalari (preboreal, boreal, atlantic, subboreal, subatlantik) mobaynida yuz bergan iqlim o'zgarishlari mintaqadagi suv resurslari dinamikasiga bevosita ta'sir ko'rsatgan. Atlantik fazada iliq va nam iqlim sharoiti dehqonchilikning rivojlanishi uchun qulay shart-sharoit yaratgan bo'lsa, subboreal faza davomida kuzatilgan qurg'oqchilik esa suv resurslaridan samaraliroq foydalanishni talab qilgan.

Ikkinchidan. Hidrografik tizimlarning o'zgarishi: Amudaryoning g'arbiy yo'nalishda burilib, Sariqamish botig'iga oqib o'tishi va Uzboy o'zanining shakllanishi kabi yirik gidrografik o'zgarishlar mintaqa iqtisodiy hayotida keskin burilishlarni keltirib chiqargan. Bu jarayonlar nafaqat suv resurslarining taqsimlanishini, balki aholining migratsiya yo'nalishlarini ham belgilab bergan.

Uchinchidan. Geomorfologik jarayonlarning ahamiyati: Yer yuzasi harakatlari va global okean sathidagi o'zgarishlar mintaqa daryolari rejimiga

sezilarli ta'sir ko'rsatgan. So'nggi muzlik davrida okean sathining pasayishi daryolarning o'zanlarini chuqurlashtirishiga olib kelgan bo'lsa, muzliklar eriganidan keyingi davrda suv sathining ko'tarilishi yangi ko'l va botqoqliklar shakllanishiga sabab bo'lgan.

To'rtinchidan. Orol dengizi dinamikasining ta'siri: Orol dengizi sathidagi o'zgarishlar va uning Kaspiy dengizi bilan bog'liqliklari mintqa ekotizimiga chuqur ta'sir ko'rsatgan. Dengiz sathining ko'tarilishi va pasayishi natijasida voha aholisining turmush tarzi va iqtisodiy faoliyati o'zgarishlarga uchragan.

Beshinchidan. Madaniyatlararo o'zaro ta'sir: Tabiiy sharoitdagi o'zgarishlar natijasida yuzaga kelgan migratsiya jarayonlari turli madaniyatlarning o'zaro ta'siriga olib kelgan. Bu o'zaro ta'sir natijasida Xorazm vohasida o'ziga xos, boy va rang-barang madaniyat shakllangan.

Xulosa qilib aytganda, Xorazm vohasi ibtidoiy madaniyatining shakllanishi va rivojlanishi tabiiy muhit o'zgarishlariga moslashuv va undan samarali foydalanish asosida yuzaga kelgan. Tabiiy omillarning o'zgarishi insoniyatning ijodiy va moslashuvchan qobiliyatini rag'batlantirib, mintaqada murakkab va barqaror madaniyatning shakllanishiga olib kelgan. Bu tarixiy tajriba hozirgi kunda atrof-muhit o'zgarishlari sharoitida tabiiy resurslardan ogilona foydalanish va ekotizimni muhofaza qilish uchun muhim saboqlar o'z ichiga oladi.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar

1. Burr G.S., Kuzmin Y.V., Krivonogov S.K., Gusskov S.A., Cruz R.J. A history of the modern Aral Sea (Central Asia) since the Late Pleistocene // Quaternary Science Reviews. Volume 206, 15 February 2019, – P. 141-149 / URL: <https://doi.org/10.1016/j.quascirev.2019.01.006>.
2. Mangerud J. A. N. et al. Quaternary stratigraphy of Norden, a proposal for terminology and classification // Boreas. – 1974. – T. 3. – №. 3. – C. 109-126.
3. Maxmudov U. Orolbo'yi sharqiy hududida ijtimoiy-iqtisodiy va etno-madaniy munosabatlar tarixi. – Buxoro: Sadriddin Salim Buxoriy, 2025. – B. 70.
4. Болдаков Е.В. Жизнь рек. – М.: Государственное издательство технико-теоретической литературы, 1953. – С. 9.

5. Кесь А.С. Аральское море в голоцене // Археология и этнография Средней Азии. –М., 1979. – С. 20.
6. Леонов Ю. Г., Лаврушин Ю. А., Антипов М. П., Спиридонова Е. А., Кузьмин Я. В., Э. Джалл Дж. Т., Бурр С., Желиновская А., Шали Ф. Новые данные о возрасте отложений трансгрессивной фазы раннехвалынской трансгрессии Каспийского моря // Доклады Академии наук 386 (2); 2002. – С. 229—233.
7. Макарова Н. В. Вюрмское оледенение // Большая российская энциклопедия: научно-образовательный портал – URL: <https://bigenc.ru/c/viurmskoe-oledenenie-166924/?v=9293682>. – Дата публикации: 15.12.2023
8. Низовья Аму-дарьи, Сарыкамыш, Узбой. История формирования и заселения / Редакторы С.П. Толстов, А.С.Кесь // МХЭ. Вып 3. – М., 1960. – С. 21.
9. Пидопличко И.Г. Еще раз о хронологии антропогена // Природная обстановка и фауны прошлого. Выпуск 3. – Киев: «Наукова Думка», 1967. – С. 134-135
10. Сеницын В. М. Введение в палеоклиматологию. 2-е изд., перераб. и доп. — Л.: Недра, 1980. – С. 205.